

XALQARO
"OLTIN MEROS"
XAYRIA JAMOAT



26 FONDI
YOSHDA

QADRIYATLARNI
QADRLAB...



Jumayeva Shoira Berdiyarovna

Qadriyatlarni qadrlab...

Monografiya

“Lesson Press”

Toshkent-2022

UO'K: 9.07(575.1)

KBK: 74.200.5

Jumayeva Shoirra Berdiyarovna

Qadriyatlarni qadrlab... Monografiya. T: "Lesson Press" MChJ nashriyoti, 2022. 119 b.

M a ' s u l m u h a r r i r :

Xoliqova Nodira Djoxongirovna- filologiya fanlari номзоди

T a q r i z c h i l a r :

Y.V.Golisheva- O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi qoshidagi Turizmni rivojlantirish instituti direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

O.N.Nasirov- CHDPU, "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasida mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

B.I. Mammetova- O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi qoshidagi Turizmni rivojlantirish instituti kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i.

Mazkur monografiya Toshkent viloyati tamadduni tarixini tadqiq etish, ko'p millatli xalqining milliy-madaniy merosini izlab topish, asrab-avaylash, mamlakatimiz va xorijda keng targ'ib etish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va udumlarga ehtirom va sadoqat, ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlarda faoliyat olib borayotgan xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati muassasasining 26 yillik faoliyatiga bag'ishlanadi.

Monografiya yurtimiz tarixiga qiziquvchi kitobxonlar ommasiga, elshunoslik, tarix sohasi faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarga, shuningdek, oliy o'quv yurtlari tarix va etnografiyadan ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining
26.10.2021 y. №2-sonli majlis bayonomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN: 978-9943-8941-9-8

© "Lesson Press" MChJ nashriyoti, 2022

So‘lim va betakror Chirchiq vohasi, Olmaliq va Ohangaron kengliklarida joylashgan Toshkent viloyati, bu ko‘hna diyor har qanday yuksak ta‘rifga munosibdir. Bu zaminning unumdor tuprog‘i, qut-baraka yog‘iladigan dala va bog‘lari, oltin, kumumsh, mis, marmar, ko‘mir kabi zahiralarga boy konlari, eng muhimi, mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqi vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Shavkat Mirziyoev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SO‘Z BOSHI

Qo‘hna va hamisha navqiron Toshkent vohasi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda eng yirik mintaqalardan biri hisoblanadi. Qulay geografik joylashuvi, o‘ziga xos fauna va florasi, iqlimi, yer osti boyliklari vohaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘chmanchi chorvachilik hamda o‘troq dehqonchilik xo‘jaliklari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqalar markazi hamda Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan voha o‘ziga xos tamaddun tarixiga ega. Toshkentning qadim va buyuk tarixi to‘g‘risida – antik va o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar va me‘morchilik yodgorliklari ma‘lumot beradi.

Asrlar davomida sayqallangan va bugungi avlodlarga yetib kelgan xalq merosi mustaqillikdan so‘ng yana qadr topdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur qadriyatlarimiz, an‘ana hamda marosimlarimizni tiklash, kelajak avlodlarga yetkazib berish, tabarruk qadamjo hamda ziyoratgohlarimiz tarixini o‘rganish, rekonstruksiya qilish, vatanimiz tarixiga oid tarixiy asarlar va qo‘lyozmalarni o‘rganish, saqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarda “Oltin Meros” xalqaro xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati bo‘limi faoliyati muhim ahamiyatga ega.

27 sentyabr – “Oltin Meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tashkil etilgan kun bo‘lib, bundan 26 yil oldin O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining xalqaro xayriya

ISBN: 978-9943-8941-9-8



9 789943 894198